

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI QOSHIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.12.2022.F/Ss.135.01**

RAQAMLI ILMIY KENGASH

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MATNAZAROVA MUHAYYO AXMETJANOVNA

**ETNOMADANIY JARAYONLAR VA ULARNING MILLATLARARO
MUNOSABATLARGA TA'SIRI**

09.00.09 — Ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по политическим наукам**

**Contents of dissertation abstract
of the Doctor of Philosophy (Ph.D.) on political Sciences**

Matnazarova Muhayo Akhmetjanovna Etnomadaniy jarayonlar va ularning millatlararo munosabatlarga ta’siri.....	3
Матназарова Мухайё Ахметжановна Этнокультурные процессы и их влияние на межэтнические отношения.....	22
Matnazarova Mukhayyo Akhmetjanovna Ethnocultural processes and their influence on interethnic relations.....	45
E’lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	49

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI QOSHIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.12.2022.F/Ss.135.01**

RAQAMLI ILMIY KENGASH

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MATNAZAROVA MUHAYYO AXMETJANOVNA

**ETNOMADANIY JARAYONLAR VA ULARNING MILLATLARARO
MUNOSABTLARGA**

09.00.09 — Ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.1.PhD/Ss347 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (ik-falsafa.nuu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ruziyeva Ruxsora Xodiyevna
falsafa fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxtorov Azamat Muxtorovich
falsafa fanlari doktori, professor

Zamonov Zokir Turg'unvich
siyosiy fanlar doktori (PhD),

Yetakchi tashkilot:

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti qoshidagi DSc.03/29.12.2022.F/Ss.135.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 29-mart kuni soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 9-uy, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, 3-qavat, 307-xona. Tel.: (99871)-215-53-93; faks: (99871) 215-53-02.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (1189 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU Ma'muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 236-46-55; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 19-mart kuni tarqatildi.
(2024-yil 19 martdagi 15-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A. Mavrulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

I.A. Suvanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O.R. Musayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari o'ziga xos ijobiy va salbiy xususiyatlari bilan tavsiflanadi: bu holat, bir tomondan etnos va millatlarning birlashish tendentsiyalarining rivojlanishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqlarning etnomadaniy o'ziga xosligini saqlab qolish masalasi bilan bog'liqdir. Bunda global olamda kechayotgan turli ijtimoiy-siyosiy muammolar zaminida millat masalasi, milliy mintalitet, o'zlikni anglash masalalari kun tartibiga chiqmoqda. Shu sababli, etnomadaniyatni asrash, milliy mentalitetni boyitish hisobiga milliy mansublikni saqlab qolish, jamiyatdagi etnomadaniy jarayonlar va ularning istiqoboldagi millatlararo munosabatlarga ta'siriga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarblashib bormoqda.

Jahondagi yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida jamiyatda millatlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mojaroli vaziyatlar va ixtiloflarning barvaqt oldini olish va ularni bartaraf etish, joylarda millatlararo munosabatlar holatini monitoring qilish tizimi va mexanizmlarini yo'lga qo'yish, migratsiya va repatriatsiya jarayonlarining xalqlarning etnomadaniyatiga ta'sirlarini o'rganishga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada davlatning ichki va tashqi siyosiy barqarorligini ta'minlash, millat va elatlarning tili, urf-odati va an'analariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, ularni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, millatlararo muomila madaniyatini tarbiyalash, mamlakat hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, millatchilik oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mojaroli vaziyatlar va ixtiloflarning barvaqt oldini olish kabi masalalar ilmiy muammo sifatida tadqiq etilishiga muhim ahamiyat qaratmoqda.

O'zbekistonda mamlakat barqarorligi mintaqaviy ijtimoiy-madaniy taraqqiyot bilan bevosita bog'liq ekanligiga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yuritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do'stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish"¹ muhim ahamiyatga egadir. Shu nuqtai-nazardan, etnomadaniy jarayonlar va ularning millatlararo munosabatlarga ta'siri takomillashuvini siyosiy yo'nalish sifatida tadqiq etish hamda ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 22-fevraldagi PF-5667-son "Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 8-apreldagi F-5465-son "O'zbekiston taraqqiyotining yangi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish kontsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoiyshlari va mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning² mavzuga doir asarlari ushbu tadqiqot uchun nazariy asos va metodologik manbaa bo'lib xizmat qiladi. Mazkur asarlar shunisi bilan ahamiyatliki, ular dissertatsiya ishining fundamental-uslubiy asosini tashkil etsa, sohaga tegishli qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning me'yoriy va huquqiy bazasi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar taraqqiyotida milliy madaniyat, an'ana va qadriyatlarning o'rni, ularda milliylik va umuminsoniylikni namoyon bo'lish xususiyatlari, milliy til, urf-odatlar, an'analar rivoji, milliy g'oya, baynalminal tarbiya bilan bog'liq masalalar O'.Abilov, V.Alimasov, S.Atamuratov, M.Boxobadjayev, A.Geldiyeva, M.Jakbarov, N.Jo'rayev, U.Karabayev, B.Karimov, M.Nishanov, N.Ortiqov, I.Saifnazarov, I.Serova, B.To'ychiyev, I.Udalova, Q.Xonazarov, I.Ergashev, Z.Qodirova³ kabi olimlar asarlarida tadqiq etilgan. Bugungi kunda O'zbekistonda kechayotgan etno-ijtimoiy jarayonlar, mamlakat aholisi tarkibining etnik jihatdan kengayishi sabablari, tadrijiy ravishda amalga oshirilayotgan migratsiya jarayonlarining tarixiy, siyosiy-huquqiy, demografik, falsafiy jihatlari, shuningdek, millatlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning din va konfessiyalararo munosabatlar bilan bog'liqligiga oid muammolar O.Atamirzayev, A.Begmatov, M.Bekmuradov, D.Bobojonova, V.Gentshke, S.Gitlin, M.Imomnazarov, I.Karimov, R.Kim, M.Mahmudov, Z.Munavvarov, R.Murtazayeva, J.Najmiddinov, T.Toshlonov, A.Raxmankulova, A.Saliyev, I.Fozilxo'jayeva, Sh.Xaitov, R.Shamsutdinov, A.Hasanov, Z.Husniddinov, I.Xudoyberdiyev, O.Musayev, N.Nazarov, X.Yunusova⁴lar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Tadqiqot ishini mazmunan boyitishda siyosatshunoslik, tarix, falsafa, sotsiologiya sohalarida olib borilgan ilmiy izlanishlardan keng foydalanildi. Xususan, xorijlik olimlardan Z.Bzejinskiy, B.Bovden, J.Vardlay, Ue.Goffman,

² Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.; Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 48 b.; Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b.; Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 488 b. ² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - 460 b

³ Mazkur mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

⁴ Mazkur mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Ye.Gellner, M.Djenkins, S.Dobson, D.Jakobs, Ye.Kadouri, K.Kreys, V.Laguyegur, S.Lirset, R.Myuller, G.Nollau, R.Raune, A.Redlik, A.Smit, A.Toynbi, A.Toffler, Ye.Fromm, S.Xantington, B.Shafer, S.Shilman, Ye.Eriksen, K.Yaspers⁵ asarlari o'rganildi.

MDH mamlakatlari olimlari A.A Magamedov, A.Danilov, V.A.Tishkov, Z.Tarkunov, A.M Retrov, A.A.Bodalev, Z.A Dadaboyev, Yu.V.Bromley, Ye.Galner, S.E.Ribakov, V.I.Kozlov. M.N.Gubuglo, S.Abashin⁶ va boshqalar tadqiqotlarida millatlararo munosabatlardagi muammolar, global etnomadaniy o'zgarishlarning bu jarayonlarga ta'siri tizimli tartibda, yaxlit nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish davrida mamlakatimizda ma'naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi millatlararo munosabatlarda totuvlikni ta'minlashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va rolini aniqlash hamda bunga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“etnos” va “millat” tushunchalarining ta'rifi, tarixiy va zamonaviy tasniflarini tuzish asosida nazariy-uslubiy muammolar ko'lamini aniqlash;

Etnik bag'rikenglikni millatlararo munosabatlarni tartibga solishning mexanizmi sifatida tahlil etish va uning ahamiyatini ochib berish;

Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda hamkorlikning o'rni va uning ahamiyatini oshirishning ustuvor jihatlarini ochib berish;

repatriatsiyaning etnomadaniy jarayonlar va millatlararo munosabatlarga ta'sir etuvchi asosiy omillardan bir ekanligini ilmiy asoslash;

Yangi O'zbekistonda millatlararo munosabatlarda barqarorlik taraqqiyot omili sifatida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish mexanizmlarini aniqlash, ularni takomillashtirishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini O'zbekistonda etnomadaniy jarayonlarning millatlararo munosabatlarga ta'sirining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti etnomadaniy jarayonlar va millatlararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillarini ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy va empirik tahlil, deduktiv va induktiv, kuzatish, tizimli yondashuv, mantiqiylik, anketa so'rovnomasi kabi ilmiy bilish usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

⁵ Mazkur mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

⁶ Mazkur mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

“siyosiy borliq” va “millat-siyosat-davlat” kategoriyalari muayyan hududda etnosning millat darajasida shakllanishi va e'tirof etilishi hamda jamiyatda uning siyosiy jihatdan ekzistentsial mohiyatini o'zlashtirilishi “etnos-millat-xalq-vatan” tamoyilining jamiyatning yaxlit siyosiy bir butunligini ta'minlashdagi funktsiyasiga ko'ra takomillashtirilgan;

muayyan hududda millatlararo munosabatlar monitoringi va mexanizmlarini ishlab chiqish, turli elatlarning tili, urf-odati va an'analariga nisbatan teng munosabatda bo'lish, ularga preventiv rivojlanishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, migratsiya va repatriatsiya siyosatidagi ijobiy o'zgarishlar xalqaro maydonda mamlakat imidjiga ekzogen (tashqi siyosiy sabab, turtki) ta'sir etishi asoslangan;

har bir fuqaroning fundamental huquq va manfaatlari, qarashlari va e'tiqodi hurmat qilinishi va tengligini ta'minlanishi mohiyatan davlatning millatlararo munosabatlar sohasida umuminsoniy tamoyillarga amal qilayotganligini ko'rsatib beradigan adolatli mezon bo'lish bilan birga jamiyatda etnik ziddiyatlar va mojarolarni oldini oluvchi muhim siyosiy mexanizm ekanligi ochib berilgan;

Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlarni rivojlantirish tendentsiyasida bag'rikenglik madaniyati va hamjihatlik tamoyillari xalqaro siyosiy hamkorlikning asosiy amaliy mezoni bo'lib, millatlar diasporasini saqlash hamda “yopiq qo'shnichilik” “yaxshi qo'shnichilik” siyosatiga o'zgargani jamiyatda repatriatsiya (vatanga qaytish) jarayonini jadallashtiruvchi muhim mexanizm ekanligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o'quv qo'llanmalar va u haqidagi retsenziyalar, respondentlar bilan o'tkazilgan so'rovlar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“etnos” va “millat” tushunchalarining ta'rifi, tarixiy va zamonaviy tasniflarini tuzish asosida nazariy-uslubiy muammolar ko'lami aniqlangan bo'lib, “etnomadaniy jarayonlar” va “millatlararo munosabatlarga oid” kontseptsiya va nazariyalarini o'rganishda ilmiy maktablarning o'rni va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari, etnik bag'rikenglikning millatlararo munosabatlarni tartibga solish mexanizmi sifatidagi ahamiyati hamda repatriatsiyaning etnomadaniy jarayonlar va millatlararo munosabatlarga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida qo'lladil uchun Yangi O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning barqaror taraqqiyot omili sifatidagi ahamiyatini oshirish mexanizmlarini aniqlash, ularni takomillashtirish bo'yicha

o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur xulosa va tavsiyalar, hamda targ'ibotchilar uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ijtimoiy falsafa, etnologiya, antrorologiya, etnografiya, politologiya kabi fan sohalarini yangi yondashuvlar, xulosalar bilan boyitadi va shu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarga ma'lum bir nazariy yo'llanma bo'lib xizmat qilishi, ularga izlanish doiralarini belgilab olishga yordam berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan ijtimoiy-amaliy va madaniy-ma'rifiy tadbirlarda, taraqqiyotning yangi bosqichida millatlararo munosabatlarni mustahkamlashga doir "Yo'l xaritalari"da, fuqarolar yig'inlari, milliy madaniy markazlar va nodavlat notijorat tashkilotlar kundalik faoliyatlarida hamda o'quv-tarbiya bilan shug'ullanuvchi muassasalar faoliyatida foydalaniladigan o'quv-metodik qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotning natijalari, undagi ilmiy xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilayotgani bo'yicha quyidagi tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan:

"siyosiy borliq" va "millat-siyosat-davlat" kategoriyalari muayyan hududda etnosning millat darajasida shakllanishi va e'tirof etilishi hamda jamiyatda uning siyosiy jihatdan ekzistentsial mohiyatini o'zlashtirilishi "etnos-millat-xalq-vatan" tamoyilining jamiyatning yaxlit siyosiy bir butunligini ta'minlashdagi funktsiyasiga ko'ra takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida 2023-yilda efirga uzatilgan "Etno" va "Ochiq dars" nomli turkum ko'rsatuvlarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yil 26-iyuldagi 08-48/991-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatda millatlararo munosabatni mustahkamlashga va tayyorlangan ko'rsatuv stsenariysining nazariy-metodologik asoslari takomillashtirilishiga xizmat qilgan;

har bir fuqaroning fundamental huquq va manfaatlari, qarashlari va e'tiqodi hurmat qilinishi va tengligini ta'minlanishi mohiyatan davlatning millatlararo munosabatlar sohasida umuminsoniy tamoyillarga amal qilayotganligini ko'rsatib beradigan adolatli mezon bo'lish bilan birga jamiyatda etnik ziddiyatlar va mojarolarni oldini oluvchi muhim siyosiy mexanizm ekanligining ilmiy-amaliy asoslanganligi bo'yicha taklif va tavsiyalardan Yoshlar ishlari agentligining 2023 yilga mo'ljallangan "Ish rejasi"ning 11-, 18-, 24-bandlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Yoshlar ishlari agentligining 2023 yil 4-sentyabrdagi 1-15-25-2475-son dalolatnomasi). Natijada, mamlakatda millatlararo munosabatlar holatini monitoring qilish tizimi, mexanizmlarini ishlab chiqishda xizmat qilgan;

muayyan hududda millatlararo munosabatlar monitoringi va mexanizmlarini ishlab chiqish, turli elatlarning tili, urf-odati va an'analariga nisbatan teng munosabatda bo'lish, ularga preventiv rivojlanishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, migratsiya va repatriatsiya siyosatidagi ijobiy o'zgarishlar xalqaro maydonda mamlakat imidjiga ekzogen (tashqi siyosiy sabab, turtki) ta'sir etishi asoslanganligiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari

qo'mitasining 2023-yildagi "Ish reja"sidagi konferentsiya, seminar, davra suhbatlari, shuningdek, madaniy-ma'rifiy sohalardagi tadbirlarni o'tkazishda ijodiy foydalanilgan (Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining 2023-yil 24-oktyabrdagi 14-07-2338-son dalolatnomasi). Natijada, tashkil etilgan konferentsiya, seminar, davra suhbatlari, shuningdek, madaniy-ma'rifiy sohalardagi tadbirlar samaradorligiga erishishga xizmat qilgan;

Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlarni rivojlantirish tendentsiyasida bag'rikenglik madaniyati va hamjihatlik tamoyillari xalqaro siyosiy hamkorlikning asosiy amaliy mezonini bo'lib, millatlar diasporasini saqlash hamda "yopiq qo'shnichilik" "yaxshi qo'shnichilik" siyosatiga o'zgargani jamiyatda repatriatsiya (vatanga qaytish) jarayonini jadallashtiruvchi muhim mexanizm ekanligi bo'yicha ishlab chiqilgan xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturining III-yo'nalishi 27-bandida belgilangan "Mamlakatimizda turli millat va konfessiya vakillarining hamjihatligi, toqatliligini ta'minlash borasidagi ijobiy tajribasini targ'ib etish" deb nomlangan bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 2-iyuldagi 241-son ma'lumotnomasi). Natijada, ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik bo'yicha targ'ibot-tashviqot tadbirlari, aholi o'rtasida turli yot g'oyalarni oldini olishga doir ilmiy-nazariy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprotatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (9 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnalda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Etnomadaniy jarayonlar va ularning millatlararo munosabatlarga ta'sirini o‘ragnishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobda etnos va millat haqidagi ta'limotlar retrospektiv tahlil qilindi. “Millat” tushunchasining ilmiy talqinlari, olimlarning siyosiy qarashlarining mazmuni, yo‘nalishlari o‘rganilgan.

Etnomadaniy jarayonlar ilm ahli uchun nihoyatda muhim mavzu hisoblanadi. Chunki global olamda kechayotgan turli ijtimoiy-siyosiy muammolar zaminida millat masalasi, milliy mintalitet, o‘zlikni anglash, masalalari yotadi. Chunki, etnomadaniy jarayonlar, bugungi xalqlar etnomadaniyatida kechayotgan evolyutsion jarayondagi milliy o‘ziga xoslikka qarama-qarshi bo‘lgan “global zamonaviylashuv” milliy ma'naviyatning yo‘q bo‘lishiga zamin yaratmoqda.

Milliy ma'naviyatning tashqi ta'sirlar orqali yemirilishi va uning yo‘q bo‘lishi, millatning yo‘q bulishidek xavfni vujudga keltiradi. Etnomadaniyatni asrash orqali milliy mentalitetni boyitish hisobiga millatni asrab qolish mumkin bo‘ladi.

Bugungi kunda biz yashayotgan ona zaminida turli-tuman xalqlar o‘zlarining milliy-etnik madaniyati va an‘analari bilan boshqalardan ajralib turadi. O‘z navbatida har bir etnik birlik o‘ziga xos shakllanish va etnik rivojlanish tarixiga ega. N.I.Konrad ta'biri bilan aytganda:”...har bir xalq, son jihatidan katta yoki kichik bo‘lishidan qat’iy nazar takrorlanmas xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan, o‘ziga xos tarixiga ega. Hatto aytish mumkinki, insoniyat tarixi ana shunday kichik xalqlar tarixidan ham ibtido oladi”⁷.

Etnomadaniyatda etnos va millat tushunchalarining ilmiy va metodologik tahlili tadqiqotchi olimlar tomonidan alohida e'tibor qaratiladi. Ijtimoy–gumanitar fanlar nuqtai nazaridan etnos, etnik birlik muammosi doirasida primordialistik, insturamentalistik va konstruktivistik yondashishlar orqali tahlil etilgan:

Primordialistik: Ushbu kontseptsiyada etnos va millat tushunchalarining substantsional va essentsialistik yoki tarixiy ildizlarini tahlil qilishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Etnomilliy kontseptsiyalar orasidagi primordializm (ingliz tilidagi “primordial – “boshlang‘ich”, “dastlabki”, “azaliy” degan so‘zdan olingan) paradigmadagi etnos va millat identifikatsiyasi tabiatda yoki jamiyatda ob'ektiv asosga ega bo‘lgan aniq fenomenlar tahliliga alohida e'tibor qaratiladi. Primordializm oqimi ikki yo‘nalishga bo‘linadi: tarixiy-evolyutsion va

⁷ Конрад Н.И. Запад и Восток. М.: Наука, 1972. - С. 17

sotsiobiologik yo‘nalish. Bunda etnos (yunon. ethos – guruh, qabila, xalq) ijtimoiy-tarixiy va madaniy jarayonlar natijasida shakllangan ijtimoiy guruhining o‘ziga xos turi yoki urug‘, qabila, elat va millat shakllarida namoyon bo‘luvchi fenomen sifatida talqin qilinadi. Tarixiy-evolyutsion yo‘nalishning rivojlanishida akademik Yu.V.Bromley olib borgan tadqiqotlari orqali etnik birlik tushunchasi, etnik birlikning davrlarga bo‘linishi, etnik alomatlar va boshqa shu kabi masalalar borasida qator yangi ilmiy falsafiy qarashlarni ilgari suradi.

Shuningdek, bu nazariya etnik ziddiyatlarni tabiat qonuniyati sifa-tida baholaydi. Bu, mashhur ingliz olimi Tomas Gobbsning “inson-insonning bo‘risi” tamoyilidan kelib chiqadigan “bitmas-tuganmas” mojarolar va ular orasidagi raqobatni anglatuvchi omillarni bildiradi. Praymordializm bu raqobatbardosh dunyoda etnik o‘ziga xoslik masalasi o‘z naslini davom ettirish uchun doimiy bahs va munozara markazida bo‘lib qoladi, degan asosiy xulosani ilgari suradi.

Instumentalistik: Ushbu kontsepsiya tarafdorlari 1970–yillar o‘rtalarida g‘arb etnologiyasi doiralarida paydo bo‘lgan bo‘lib, etnosga xokimiyat va mavqei uchun kurashda qo‘llaniladigan vosita sifatida qarab, har-bir etnosga xoslik ular orasida raqobat va kurashning keskinlashu-vi omillari sifatida qarashadi. Tarafdorlari D.Govorich, Dj.Rotshild, Dj.Nayjel va boshqalar. Instrumentalizm nuqtai nazaridan, etnoslar umumiy qiziqishlar asosida birlashgan guruh, siyosiy jabhada umumiy maqsadlarga maqsalarga erishish vositasidir.Unga muvofiq ijtimoiy siyosiy jabhada ustuvorlikka jamoaviy intilish vositasi,turli ko‘rinishdagi etnik mobilizatsiya esa ijtimoiy xatti-harakatlarni belgilovchi, uyushtiruvchi, u yoki bu moddiy omillarni qo‘lga kirituvchi yordamberuvchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Konstruktivistik: Etnik muammolarni o‘rganishdagi uch asosiy nazariy yondashuvlardan yana biri- konstruktivizm hisoblanib, u etnik o‘zlikni anglashni asosan ijtimoiy omil bilan bog‘liq deb biladi. Etnik o‘ziga xoslik gendan keluvchi muqarrar va o‘zgarimas emas, balki bir necha sabablarga ko‘ra (urushlar, mustamlaka, globallashuv, integratsiyalashuv, migratsiya kabilar) o‘zgaruvchan hisoblanadi. Konstruktivizmning bir ko‘rinishi bo‘lgan institutsionalizm esa etnik muammolarning kelib chiqishini davlat institutlarining qanchalik sog‘lom va demokratik, resurslarning teng va adolatli taqsimoti amalga oshirilishi bilan bog‘laydilar.

Konstruktiv yondashish tarafdorlari R.Bart, R.Jekson, B.Anderson, P.Burd'e, E.Gellner hisoblanadi.Mazkur nazariya etnik munosabatlarda etnik munosabatlar nafaqat etnos, insonlar jamoasi, balki e'tikodi, tabiiy va madaniy jihatdan biri-biriga bog‘liq ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin etiladi.Unda munosabatlarni barqarorligini ta'minlash ko‘proq ziyolilar, yozuvchi faylasuflarga, ya'ni ijtimoiy madaniy omillarga bog‘liqligini ta'kidlanadi.

Dissertatsiyada “millat” va “etnos” tushunchasining ta'riflari tasniflangan .

Etnos va millat tushunchalariga oid izlanishlar olib borgan o‘zbek faylasuf olimlari S.Atamurodov “Millat deganda, kishilarning urf-odatlar va ana'nalar, qadriyatlar yagonaligi asosida ma'lum hududda yashovchi, o‘z davlatiga ega bo‘lgan, o‘zaro iqtisodiy aloqalar bilan bog‘langan o‘ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklani ifodalovchi hamda yaratuvchi kishilarning sub'ekt sifatidagi etnik birligi

tushuniladi”, N.A. Nazarovning “millat – til, urf-odat, an'ana, ijtimoiy-madaniy aloqalar, o'zlikni anglash va o'zlikni atash xususiyatlarini o'zida mujassam etuvchi ijtimoiy birlikdir”, S.G'afurov fikricha esa, bir holda “millat” tushunchasi odamlarning tarixiy birligi bilan, boshqa holda esa “davlat” tushunchasi bilan va tegishlicha, “milliy” so'zi-“davlatga oid” so'zlari bilan aynanlashtiriladi, degan qarashlari qiyosiy tahlil etilgan.

Demak, kishiga ma'lum bir milliy-etnik ongga ega bo'lish xosdir. Bu ong uning sub'ektiv qarashlarida namoyon bo'lsa-da, u kishining ixtiyori, xohishirodasidan tashqarida, ob'ektiv ijtimoiy borliqning, aslida milliy-etnik borliqning ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun S.Otamuradov ham “millatning abadiyligini uning ma'naviy olamidan izlash zarur” , deya ta'kidlaydi. To'g'ri, milliy-etnik ong ma'lum bir ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadi. Ongning barcha shakllarini modellashtirish mumkin bo'lganidek, milliy-etnik ongni ham model-lashtirish, u yoki bu tarzda shakllantirish mumkin. Demak, millatlararo munosabatlar, milliy-etnik ong, rang-barang ijtimoiy, tarixiy, siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy, jo'g'rofiy, hatto xalqaro omillar permanent ta'sirining mahsulidir.

Bu hayotiy tajriba uning dunyoqarashini boyitadi, unga elatlar, xalqlarni qiyoslash imkonini beradi.

Dissertatsiyada Bugungi kunda globallashuv va integratsiya jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liq tarzda mamlakatlararo, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlarning yanada kengayishi hamda chuqurlashuvi munosabati natijasida mazkur masala yanada dolzarb ahamiyat kasb eta boshlagani alohida e'tibor qaratilgan. Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati oldida bosh egibgina qolmay, uning eng qimmatbaho an'alarini, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'alarini avaylab qabul qilganlar.

Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi xalqlar o'troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar turk qabilalari bilan, musulmonlar nasroniylar va yahudiylar bilan ko'p asrlar birga yashab kelganlar.

Tarix bag'rikenglik va murosasizlik holatlari jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Bugun dunyo globallashuv, iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlari ta'sirida tobora yaxlit va bir butun xarakter kasb etib bormoqda. Kapital va tovarlar oqimi bilan bir qatorda, ularning yaratuvchisi bo'lgan insonlarning harakat doirasi ham kengayib bormoqda. Bu odamlar orasida o'zaro murosasizlik, toqatsizlik ko'rinishlarini bartaraf qilish, jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini qaror toptirish tom ma'noda global, insoniyat istiqboliga daxldor masalaga aylanganini ko'rsatadi.

Jamiyat hayotida tenglik va adolat g'oyalarining ustuvor bo'lishi va amaliyotda o'z ifodasini topishi ko'zlangan maqsadlarga erishishga, belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy mo'ljallarning barcha uchun birdek

qadr-qimmat kasb etishiga, fuqarolar o'rtasida birdamlik va hamjihatlik, o'zaro bir-birini tushunish va hurmat ruhi qaror topishiga zamin yaratadi.

Bag'rikenglik jamiyat hayotining har bir sohasida o'ziga xoslik kasb etadi. Jumladan, jamiyat sotsial strukturasi murakkablashib borishi bilan tarix sahnaga chiqqan ijtimoiy bag'rikenglikning mazmuni hamda uning ziddi bo'lgan sotsial toqatsizlikning ko'rinishlari va oqibatlari ham namoyon bo'lib boradi.

Bag'rikenglik to'g'risida g'oyalarni miloddan avvalgi XII-VII asrlarda O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan Eron va Turonda keng tarqalgan diniy-asotir, diniy-falsafiy ta'limotlarda ko'rishimiz mumkin. Shunday ma'lumotlardan biri Vatanimizda yaratilgan "Avesto" kitobida bayon etilgan. ezgu fikr egasi jaholatga berilmaydi, jaholat insonni ezgu niyatlaridan mahrum qiladi, burch va adolatni unutadi, o'ylamay ish qiladi. Shuningdek bag'rikenglik rivojining yaqqol ifodasi bo'lgan, muqaddas Qur'oni Karim g'oyalarini kiritish mumkin. Xususan, Oli Imron surasining 17-oyatida Alloh taolo besh xil toifadagi mo'minlarni, ya'ni sabrli, sadoqatli, itoatli, saxovatli va saharxez kishilarni alohida ulug'langan.

بِأَلَا سَوَدًا لَّمْ يُسَدِّتْ غُفْرَانَكَ مُنْفِقِينَ آلَ مَنفِقِينَ أَلَمْ تَتَوَكَّلْ عَلَى اللَّهِ وَرَبِّكَ إِنَّكَ بِرَأْسِ

tarjimasi:-Sabr qiluvchilar, sodiqlar, doimiy toat qiluvchilar, nafaqa qiluvchilari va saharda istig'vor aytuvchilarni⁸, Mazkur guruhga o'rta asr musulmon faylasuflarining bag'rikenglik g'oyalarini ham kiritish mumkin. Binobarin Abu Nasr Forobiyning fikriga ko'ra, kishilar moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun turli jamoalarga birlashganlar. Kishilar jamoasini boshqarishda ijtimoiy adolat tamoyillari, me'yorlariga rioya qilish darkor.

Abu Rayhon Beruniy qarashlarida bag'rikenglik g'oyalari yana ham yaqqolroq o'z ifodasini topganini ko'ramiz. Unga ko'ra, yaxshilik tomon intilish malakasi hosil bo'lishi uchun inson mutassil halol mehnat qilishi, sabr-toqat, matonat, mustahkam iroda, yuksak jamoaparvar va insoniy iymon-e'tiqodga ega bo'lishi zarurdir.

Boshqa millat va elat vakillariga bag'rikenglik pozitsiyasida bo'lish va ularning madaniyati va urf-odatlariga xurmat bilan qarash bugungi kunning dolzarb muammolari sirasiga kiradi. Bugungi kunda yuz berayotgan etnik nizolalar, ozchilik etnik jamoalar ustidan ko'pchilikni tashkil etuvchi etnik guruhlar tomonidan genotsid qilinishi holatlari dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Bunday jarayonlar yana yuzaga kelmasligi va shuningdek ushbu muammoning yechimini topish va ilmiy nuqtai nazardan dunyo ilm fan vakillari oldida turgan ilmiy muammolar sirasiga kirguvchi muammo sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo mamlakatlarining ko'p millatligi etnik bag'rikenglik masalasi alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Etnik bag'rikenglik mohiyati, jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida ularning namoyon bo'lish shakllari turlicha kechishi bilan izohlanadi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi davrida etnomadaniy xilma-xillikni saqlab qolishning dolzarb ahamiyat kasb etishi, madaniyatlararo o'zaro ta'sir va boyishning imkoniyatlari kabi masalalarga aloqadorligi bilan belgilanadi.

Bag'rikenglik doirasida uning turli shakllarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- axloqiy bag'rikenglik;
- diniy bag'rikenglik;

⁸ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Oli imron surasi- Toshkent.TIU,2004-,52-bet

- siyosiy bag‘rikenglik;
- madaniy bag‘rikenglik.
- etnik bag‘rikenglik

Bag‘rikenglik shakllari orasida etnik bag‘rikenglik alohida ahamiyatga ega. Etnik bag‘rikenglikni boshqa etnik madaniyatga nisbatan salbiy munosabatlarning yo‘qligi, aniqrog‘i, o‘z madaniyatini ijobiy anglashini saqlagan holda, boshqa madaniyatning ijobiy obrazining mavjudligini anglashidir. Bu shundan dalolat beradiki, etnik bag‘rikenglik o‘zgalar madaniyatini rad etish singari assimilyatsiya oqibati emas, balki “qabul qilish” va ularning etnik madaniyati va boshqa guruhlarning etnik madaniyatlariga nisbatan ijobiy munosabat bilan tavsiflangan millatlararo integratsiyaning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Boshqa etnik guruhlarning urf-odat va an‘analarini qabul qilish va ularga hurmat va e’tiborda bo‘lish va tushunish etnik madaniyatlarning qiymat tengligi birligiga va bu borada bir madaniyatning ikkinchisidan ustunligi yo‘qligiga asoslanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Globallashuv sharoitida millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda hamkorlik asosiy omil sifatida (qiyosiy tahlil)”** deb nomlanib, unda Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlar rivojida hamkorlikning o‘ziga hos xususiyatlari, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik va aloqalar, Millatlararo munosabatlarda Turkiy davlatlarning o‘rni va hamkorlik masalalari tadqiq qilinadi. Turli millatlar bilan davlatlar o‘rtasidagi aloqalar rang-barangligi bilan turli vaziyatlarni yuzaga keltirib chiqaradi, bu vaziyatlar ba’zan konfliktga, to‘qnashuvga olib kelishi mumkin. Bu konfliktni, to‘qnashuvni o‘rganish, yechish nafaqat siyosiy, balki, falsafiy yondashishni ham taqozo etadi. Shuningdek, tomonlar o‘rtasidagi aloqalar uchun strategik hamkorlik asosiy figura ekani ta’kidlanadi, bu Markaziy Osiyo mintaqasida millatlararo totuvlikni ta’minlashda O‘zbekistonning o‘ziga hos pozitsiyasi va millatlararo munosabatlar rivojida “hamkorlik” asosiy mexanizmlardan biri ekanligi siyosiy nuqtai-nazardan ochib beriladi.

Keyingi besh yil ichida O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarda aytarli darajada natijalarga erishmoqda, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ular bilan yaqin qo‘shnichilik munosabatlarni rivojlantirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirdi, va amalga oshirib kelmoqda. Ma’lumki, ma’lum vaqt oralig‘ida “yopiq qo‘shnichilik siyosati, bugungi kunda “yaxshi qo‘shnichilik” siyosati bilan almasldi. Chunki Markaziy Osiyo davlatlari xalqlari azaldan bir-birlariga yaqin qarindosh, va shuningdek etnik jihatdan ma’lum darajada qondoshlar xalqlar hisoblanadi.

Bugungi polietnik taraqqiyot sharoitida mintaqaviy etnoslararo jarayonlar davrimizning dolzarb muammolari sifatida, uning ilmiy-nazariy tadqiqi olim va tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo respublikalarining har birida o‘zbek millati vakillarining muayyan miqdorni tashkil etishi, har bir hududda titul millat bilan ijtimoiy-madaniy yakdil yashab, mintaqa kelajagi uchun hissa qo‘shib kelayotganligi bu borada ham maqsadli tadqiqotlarni talab etib, o‘zbek etnik birliklari mintaqaning qaysi hududida yashashidan qat’iy nazar umumiy millatning ajralmas komponentlari sifatida e’tibor qaratishni taqozo etadi. O‘zbekiston hududida ham bir nechta etnik va millatlarning istiqomat qilishi,

ularning jamiyatning barcha jabhalarida faolligi, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning to'g'ri ekanligidan dalolat beradi. Poliyetnik mamlakatlarda yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri ijtimoiy tengsizlik va fuqarolarning huquq va erkinlarining paymol bo'lishi bilan belgilanadi. Jamiyatda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarga teng imkoniyat yaratilmaganligi, ularning qadriyatlarini esa menmimaslik oqibatida turli etnik nizolar vujudga kelishiga zamin yaratadi. Oqibatda esa jamiyatda ijtimoiy -iqtisodiy inqiroz yuzaga kelishi esa siyosiy inqiroz yetilishiga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatlar vujudga kelmasligi uchun Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida muhim strategik hamkorlikni yo'lga qo'yilishi va istiqbolli rejalarni birgalikda ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida taqiqotchi va analitik olimlar oldiga muhim vazifalarni qo'yadi. Chinki amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'zaro xamkorlik ko'p yillarga xizmat qilishi lozim ekanligi e'tirof etiladi.

Dissertatsiyada O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi faoliyati mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzi va o'rni yanada ortib borishiga xizmat qildi. Turkiy davlatlar tashkiloti bugungi kunda dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari qatoridan joy oldi. Kengash turkiy tilli xalqlarning o'zaro muloqoti uchun bir qo'shimcha platforma vazifasini bajarib kelmoqda. Bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar fuqarolari o'rtasida "xalq diplomatiyasi" asosida muntazam va o'zaro foydali munosabatlarni yo'lga qo'yish, ular bilan do'stona munosabatlarni va madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Ushbu jihat esa qardosh xalqlar o'rtasidagi uzviy aloqalarni yanada mustahamlamoqda. E'tiborli jihati shuki, ushbu hamkorlik aloqalari turkiy davlat rivojida Marakaziy Osiyoda barcha turkiy tilli millatlarni birlashtirishi asosiy mexanizm ekanligiga e'tibor qaratilgan.

